E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

TERAPEVTIK STOMATOLOGIYADA TISH RANGIGA OID AMALIYOTLAR SHARHI

Sidiqov Hotamjon Mo'minjon o'g'li
Propedevtik stomatologiya kafedrasi assistenti

Annotatsiya
Ma`lumki, stomatolog-ortopedning davolash natijasi muvaffaqiyatli chiqishi ko‘p faktorlarga bog‘liq, shulardan biri tish rangini tanlash hisoblanadi. Tish rangini to‘g‘ri aniqlash ortopedik konstruksiyaning yuqori estetikasini ta’minlabgina qolmay, qayta protezlash xavfiniham kamaytiradi. Tish rangini to‘g‘ri tanlash bilan davolash jarayonidagi konflik holatlar ancha kamayadi. Maqolada ushbu masala ko`rib chiqiladi.
Kalit so‘zlar
Tish rangi, ortopedik amaliyot, konstruksiya.

KIRISH

Stomatologiyadan ma`lumki, tabiiy tishlar o‘zlarining tabiiy genetik ranglariga ega. Bemorlarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tabiiy tishlarning rang variantlari cheksiz ko‘pdir. Estetik restavratsiya ma’lum bir sog‘lom tishning tabiiy rangini, tish bo‘ynidan kesuvchi qismgacha shaffoflik darajasini hisobga olishni talab qiladi. Tish kerakli shaffoflik va minimal sarg‘ishlikni ta’minlaydigan qalin emal qavatiga ega. Dentin qavati tish bo‘yniga yaqinroq joylashgan va bo‘yin oldi sohaga kuprok sarg‘ish rang beradi. Dentin to‘qimalarining shaffofligikam. Kesuvchi qirra maksimal shaffoflikka ega.

ASOSIY QISM

Tish tana qismida pigment dog‘lar, mamelonlar, va boshqa ko‘rinadigan defektlar bo‘ladi. Ular tish qatori umumiy rang gammasiga ta’sir qiladi. Tish rangi tish yuzasi egriligi va emal qalinligi bilan aniqlanadi. Yoritilganlik darajasi tish rangini aniqlashga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Kuchli yeritish lampasi sun’iy tish rangining notabiiy oq va yorug‘ bo‘lishiga olib keladi. Yoritishning yuqori intensivligi ko‘rish qobiliyatini o‘zgarishiga olib keladi. Shuning uchun stomatologik qabul vaqtida atrofda turgan yorqin buyumlardan vozkechish kerak. Bemor neytral rangdagi yopqich bilanyopilishi kerak.

Tish yuqori va yetarli bo‘lmagan yoritishda ham rangsiz ko‘rinadi. Yuqori yorug‘likda odam ko‘rish qobiliyati rang nyuanslarini farqlamaydi, yoritish 1500-2000 lk dan oshmasligi kerak [2]. Yoritishning yuqori darajasi rang to‘yinganligini pasayishiga olib keladi. Yoritishning past darajasida ham to‘yinganlik kamayadi. Tish rangi ko‘proq kulrang gammada aniqlanadi. Bu rang retseptorlari aktivligi pasayishi va axromatik ranglar (oq, kulrang, qora) nisezish aktivligi ortishi bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari, kam yoritilganlikda zarg‘aldoq ton havorangga nisbatan to‘qroq ko‘rinadi. Taeqcha retseptorlarhavorang-yashil qismiga sezgirligi saqlanib, zargaldok – qizil qismiga sezgirligini yo‘qotadi.Tish rangini vizual aniqlashda fon katta rolo‘ynaydi. U refleks ya’ni bo‘yalgan soyalarni hosilqiladi.

Stomatologik kresloni orqa foni neytral rangda bo‘lishi kerak. Stomatologik kreslo, devorlar, shift 40% dan kam bo‘lmagan tabiiyneytral gammada bo‘lishi kerak.

Standart yoritish bilan birga rang o‘tkazish indeksi (CRI)ga ham e’tibor beriladi. Tabiiy yorug‘lik 100 CRI ga ega. Stomatologik kabinetda SRI 95 bo‘lishi kerak [3].

Rang sezish uchun optimal sharoit kulrang fondir, u sezish kontrastiga va refleksga ta’sir qilmaydi. Tish sohasiga qaramasdan qiskacha qarash emal shaffofligi kabi noto‘g‘ri rang soyasini keltirib

chiqaradi.

Rang tanlash sifatiga ko‘rish apparati retseptori xolati ham tasir qiladi. Ko‘z to‘rpardasida 1,2,3 rang retseptorlari bo‘lmaganida havorang yoki zarg‘aldoq spektr qismlarm noadekvat qabul qilinadi. Ma’lumki qisman daltonizm 8%erkaklar va 1% aellarda uchraydi.

Yosh bemorlarda tishlar yorkinroq, yorkin ifodalangan relefga va havorang-sutrang kesuv qirraga ega. O‘rta yeshdagi va yoshi katta bemorlardayedirilish sababli ikkilamchi dentin, abraziya hisobiga silliq yuza emalda esa bo‘yalgan vabo‘yalmagan yeriqlar mavjud.

Kesuv qirrada rangi turlicha mamelonlar, shaffof sohalar mavjud. Mamelonlar dentin rangidan boshqa rangda bo‘yalgan har xil uzunlik va yo‘nalishda bo‘ladi. Shaffof sohalar joyi va ranggini bilish ham muhim.

XULOSA VA MUNOZARA

Zamonaviy stomatologiyada rangni aniqlash muhim vazifa bo‘lib, uning yechimi butun og‘iz bo‘shlig‘ining estetik ko‘rinishini tiklashga, bemorning tashqi ko‘rinishini tiklashga qaratilgan bo‘lib, bundan tashqari, u umumiy salomatlikni tiklashga xissa qo‘shishi mumkin. Hozirda turli keramik materiallar brendining standart ranglar sistemasi mavjud emas. Bu yuqori estetik restavratsiya jarayonini yanada qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, tishning murakkab morfologiyasi, uning shakli, sirt tuzilishi restavrvsiya jarayonida e’tiborsiz qoldirib bulmaydigan parametrlar hisoblanadi.Shuning uchun klinik amaliyotda ranglarning barchaparametrlarini ob’ektivlash muhim vazifadir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Arachausheva V.A. Stomatologiyada tishlarning rangini aniqlash usullari // Bul. Med. Internet Conf. - 2015. - jild. 5, 10-son. - b. 1170.
2. Duseva D.A. Ortopedik stomatologiya klinikasida rangni aniqlash xususiyatlari // Intern. stud. ilmiy yelek. - 2016 yil. - 2-son.
3. Lutskaya I.K. Restorativ stomatologiyada vizual sezish va idrok psixologiyasi // Klin. implantol va stomatol. - 2019. - No 2-3. - B. 9-10.
4. Lutskaya I.K., Novak N.V., Terexova N.V. Estetik stomatologiyada rang tanlash // Stomatolda yangi. - 2011 yil - 7-son. – b. 59.

WORDLY KNOWLEDGE